

GILAMCHILIKDA TUGUN TUGISH USULLARI

Shohista Mamasoliyeva, Lobar Narzullayeva

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Bugungi kunda O'zbekistonning ko'plab hududlarida o'zbek gilamchiligining qadimiylari an'anlari qayta tiklanmoqda. Yorqin ranglar va o'ziga xos murakkab naqshlar mahalliy gilamlarning ko'plab mamlakatlarda katta shuhrat qozonishiga imkon berdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki eng qadimgi gilam Tog'li Oltoydan topilgan bo'lib, olimlarning taxminiga ko'ra, u ahamoniylar davri forslari yoki O'rta Osiyo qabilalari tomonidan tayyorlangan.

O'zbekistonda gilamchilikning asosan uzun tukli (julxirs), qisqa tukli va tuksiz (taqir gilam) turlari tayyorlanadi. Mazkur maqolada tukli gilam to'qishning asosiy unsuri bo'lган tugun tugish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: gilamchilik, forschा tugun, turkcha tugun, "jufti" tugun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2020 yildagi "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4759-sonli qarorida mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'atini, shu jumladan tarixiy an'analarimizni o'zida mujassam etgan, ota-bobolarimizdan qadimiylar bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ipak va jundan qo'lda gilam to'qish sohasini rivojlantirish va noyob san'at asari hisoblanadigan ushbu gilamlarni bozor talablariga uyg'unlashtirish masalalari ko'zda tutulgan.

Gilam to'qish san'ati xalq hunarmandchiligining keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, ko'p asrlik milliy an'ana va uzoq tarixga ega. O'zbekistonda gilamdo'zlik yarim ko'chmanchi (chorvadorchilik) tarzda hayot kechiruvchi jun mahsulotlariga juda boy mahalliy aholining asosiy mashg'uloti bo'lган.

Bu san'at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab bergen. Xorazmdagi arxeologik


qazishlar paytida miloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan. VII asr qo‘lyozmalari VII-XI asrlarda Xorazm, Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi ba’zi shaharlarda kichik-kichik joynamoz gilamchalar to‘qilib, chet mamlakatlarga sotilganligini tasdiqlaydi. Saljuqiylar davrida ham gilamlar ko‘plab tayyorlangan va Misr, Hindiston, Xitoyga olib borib sotilgan. XIV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoning Amir Temur qo‘liga o‘tishi bilan bu soha yana rivojlanadi. Har xil xorijiy mamlakatlardan gilam to‘quvchi ustalar olib kelinadi va gilam to‘qish ustaxonalari tashkil etiladi.

Gilamlar asosan tabiiy tolalar (ipak va jun)dan tayyorланади. To‘qish uslubiga ko‘ra patli va patsiz turlarga bo‘linadi. Gilamchilik iplari tabiiy bo‘yoqlarga bo‘ysa, gilamlarning rangi o‘zgarmaydi va o‘zining sifatini yo‘qotmaydi.

Qo‘lda to‘qilgan gilamlar chidamliligi, nafosati bilan mashinada to‘qiladigan gilamlardan afzaldir. Ular yaxshi saqlansa, o‘n, hatto yuz yillab xizmat qiladi.

Gilamchilikning murakkab texnikalaridan biri patli gilamlar to‘qishdir. Qo‘lda pat (tuk)li gilam to‘qish ancha sermashaqqat ish bo‘lib, 1 m^2 patli gilam to‘qish uchun o‘rtacha 20-25 kun vaqt ketadi. Bunda gilam to‘quvchi 1 m^2 yuzada 600-1030 tacha tugun tugishi (bog‘lashi) bilan bir vaqtida ajoyib naqshlar hosil qilishi lozim bo‘ladi. Gilamning qiymati uni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt, naqshning qanchalik murakkabligi va uning tarkibidagi tugunlar soniga bog‘liq bo‘ladi. Patli gilamlar kalta patli (3-7mm) va uzun patli (8-17 mm) bo‘ladi.


Patli gilamlarning strukturaviy sxemasi 1-rasmida keltirilgan bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topgan: 1 – asos (tanda) ip, 2 – arqoq ip, 3 – tugunlar, 4 – boshlang‘ich yoki yakuniy to‘qima, 5 – milk, 6 – shokila.



1-rasm. Patli gilamlarning strukturaviy sxemasi.

Gilamlar ko‘pincha o’simliksimon naqshli bo‘ladi. Gilam naqshi maxsus rassomlarning eskizi yordamida solinadi. Biroq bugungi kunda gilam naqshlarini kompyuter grafikasi yordamida ham tezda va osonlik bilan yaratish mumkin.


Barcha patli gilamlarning o‘ziga xos xususiyati tugun tugishdir. Har bir tugun ikkita asosiy texnikaga ko‘ra to‘qiladi: “*turkibaft*” (turkcha) va “*farsibaft*” (*forscha*). *Forscha* (yoki assimetrik) tugun, asosan Eronda ishlatiladi (2-rasm). *Turkcha* (yoki simmetrik) tugun asosan Turkiya, Kavkazda, Sharqiy va G‘arbiy Ozarbayjonda ishlatiladi (3-rasm).



2-rasm. Asimmetrik (forscha)
tugun.

3-rasm. Simmetrik (turkcha)
tugun.

Forscha tugun tugishning takomillashgan usullari ham mavjud bo'lib, uning o'ziga xosligi tugunning bir emas, ikkita tanda ipini qamrab olishi bilan asoslanadi va ular "jufti" deb nomlanadi.



4-rasm. "Jufti" tugun.

Bir qator tugunlar to'qib bo'lingandan so'ng, gilam bo'ylab gorizontal arqoq ip to'qib chiqiladi. So'ngra u to'quvchilik tarog'i yordamida qattiq urib mahkamlanadi. Agar ushbu jarayon bajarilmasa, gilamning naqshi buziladi va to'g'ri proporsiya bo'lmaydi.

Yangi to'qilgan gilam maxsus qaychi yordamida tekislanadi. Tekislanib bo'lgandan so'ng, qoldiq iplar qirqib tashlanadi va keyingi qatorni to'qishga tushiladi.

Gilam tayyor bo'lgandan so'ng, dastgohdan qirqib olinadi va yollari tugiladi. So'ngra ipak yoki jun qoldiqlaridan tozalash uchun gilamning orqa tarafi birozgina kuydiriladi.

To'qish jarayonida gilamlarning ortiqcha tuklari to'xtovsiz ravishda qirqib turilsa-da, ularning yuzasi birozgina notekis bo'ladi va ish yakunida so'nggi marotaba bir xil tekislikda kaltalanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gilam to'qishni bugungi kunda nafaqat hunarmandlar o'rtasida balki, talaba va o'quvchi yoshlar o'rtasida ham keng yoyish, ommalashtirish – yoshlar o'rtasida milliy g'uruf va iftixor tuyg'ularini

o'stirish, ma'naviy va madaniy merosimizni qayta tiklash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri deb qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2020 yildagi “Respublikada qo'lda to‘qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4759-sonli qarori.
2. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma. SamDU nashriyoti 2020 yil.
3. Eshqobilova G. Surxon-qo'ng'iroq gilamchiligi va o'tovlari. “Jahon sivilizatsiyasida boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. Termiz – 2019.
4. Faxriddin o'g'li, F. M. Exploring the specific innovations of computer graphics in drawing science. // “Научный Фокус”, 2024 yil 1(10).
5. Faxriddin o'g'li, F. M. Computer graphics in the sphere of drawing details: enhancing creativity and precision. // “Innovation in the modern education system”, 2024 yil 4(37).
6. Патлах В.В. Энциклопедия технологий и методик. 1993-2007 гг.
7. Faxriddin o'g'li, F. M. Dunyo ta'lism uslublaridagi sara durdonalar. // “Научный Фокус”, 2023 yil 1(7).
8. Faxriddin o'g'li, F. M. Fin ta'lism tizimining global o'qitishda tutgan o'rni. // “Innovative developments and research in education”, 2024 yil 3(26).
9. Haydarov R.M. Xalq hunarmandchilgida gilamchilik tarixini o'rgatish. “Jahon sivilizatsiyasida boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. Termiz – 2019.